

## TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGLAR MUTAXASSIS SIFATIDA

*49- maktab amaliyotchi psixologi*

*Dadaqo'ziyeva Munosibxon Yo'ldashevna*

*4 - maktab amaliyotchi psixologi*

*Mirtojiyeva Yulduzxon Nosirovna*

*7- maktab amaliyotchi psixologi*

*Komilova Marxabxon Abdusalomovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamon psixologiya fani sohalari boyicha materiallarni umumlashtirish, hozirgi davrda psixologiya sohalarining kengayishi, psixologiya o'qitishda har xil xususiyatli ko'rgazmaliliklardan foydalanish haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim muassasalari, psixologiya, mutaxassis, ko'rgazmalilik, psixologik xizmat.

**Kirish:** Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan tashkil etish o'quv faoliyatini rivojlantirish, o'quvchi shaxsini psixologik tomondan takomillashtirish jiddiy muammo sanaladi. Psixologik xizmat faoliyati o'quvchilar aqliy faoliyat taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini diagnostika qilishga, ta'lim-tarbiyasidagi buzilishlarning psixologik sabablarni aniqlashganiga qaratilmasdan, balki bunday buzilishlarni yo'qotish va oldini olishga qaratiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Hozirgi vaqtda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizga yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimiz samarasi, taqdiri bularning barchasi avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham yosh avlodni yetuk barkamol

shaxs qilib takomillashtirishda ayniqsa, pedagog-psixologlar vazifasi juda mas'uliyatlidir. Bugungi zamon psixologiya fani sohalari borasida materiallarni umumlashtirishning ko'rsatishicha, psixologiya o'qitish uslubi nuqtai nazaridan ta'limda ko'rgazmalilik bir qancha ko'rinishga ajratiladi. Bunda jinsiy diformizmga va shaxslarga gender munosabatga alohida ahamiyat berish o'qitish samaradorligini oshirishga jiddiy zamin tayyorlaydi. Psixologiya fanining sohasini o'qitishda muhim kategoriyalar, bo'lim va boblarning boshlari sxemalar, diagrammalar, chiziqli ifodalar ko'rinishda o'quvchilar hukmiga havola etilishi mavzulararo uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ammo ko'rgazmalilik mazmuni va maqsadini ota suiste'mol qilish ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu tarzda ko'rgazmalilik uchun material tanlash ham alohida mohiyatga ega, sababi har bir tasvir, shartli ifoda, model o'zining betakrorligi bilan ajralib turishi joiz.

**Natijalar:** Ma'lumki, psixologiya sohasining kengayishi, bu fan berayotgan bilimlardan ijtimoiy turmushda, ishlab chiqarishda, tibbiyotda, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish ehtiyojining ortishi fanimizning mavqei, nufuzi yanada oshayotganligidan dalolat beradi. Oliy va orta maxsus o'quv yurtlarida psixologiya kursi o'qitilishining yo'lga qo'yilishi uning tatbiqiy tomonlarini kengaytirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, pedagogika maktablarda kasbiy xislatlarni rivojlantirish mohiyatiga molik o'quv predmeti sifatida psixologiya kursi alohida nufuzga ega sanalib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy qobiliyatlari va mahoratini tarkib toptirishda hal etuvchi rol hisoblanadi. Shuning uchun psixologiya kurslarini yuqori saviyada, faol, yangi, samarador metodlar yordamida o'qitish asosiy ahamiyat kasb etadi, sababi o'qitish samaradorligini oshirmasdan turib, bilimlar sifati haqidagi fikr yuritish mumkin emas. Yuqori malakali o'qituvchi mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun psixologiya o'qitishni rivojlantirish, o'quvchilarda psixologiya faniga nisbatan qiziqish uyg'otish lozim.

**Muhokama:** Psixologiya o'qitishda turli xil xususiyatli ko'rgazmaliliklardan foydalanish o'quvchilar faolligini jonlantiradi, oldingi bilimlarni esga tushiradi, borliq haiqdagi tasavvurlarini qayta esga kelishiga imkon yaratadi. Biroq har bir narsaning me'yori mavjud bo'lgani kabi ko'rgazmalilik ham an'anaviy, odatiy holat yoki voqelikka aylanib qolmasligi zarur, aks holda mavhum tushunchalarni o'zlashtirishda muayyan qiyinchiliklar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Psixologik xizmat zamonaviy ta'lim tizimining uzviy tarkibiy qismi bo'lib, u bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ularning intellektual va shaxsiy imkoniyatlarini, bolaning moyilligi, qobiliyati, qiziqishlari va moyilligini óz vaqtida aniqlash va maksimal darajada foydalanishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi, birinchi o'rinda bolani biladigan va chuqur tushunadigan ikkalasini ham tushunadigan shaxsdir.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, psixolog o'quvchilar xarakterida bor bo'lgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o'z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil etish, baholash, o'zining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish to'g'risidagi tavsiyalar beradi. Umum o'rta ta'lim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o'z faoliyati vaqtida ta'lim muassasasining ijtimoiy sharoitini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zo'riqishlarini yuzaga chiqishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o'rni beqiyos.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boymurodov, N. Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodi. 2019.
2. Jabbor Usarov. O'quvchilarni rivojlantirish uchun o'qitish usullaridan foydalanish Qobiliyatlar. Progressiv fanlar va texnologiyalar xalqaro jurnali, 2019.
3. Nishonova, G. Alimova Bolalar psixologiyasi va uni oqitish metodikasi. Toshkent 2006.
4. M. Shobekova. D. Solieva Yosh davrlari va pedagogik psixologiyada amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Fan. 2006.
5. F.I. Haydarov. N.I. Xalilova Psixologiya fanlarini oqitish metodikasi. Toshkent 2001.
6. Karimov, K. (2023). OFFICIALS OF JUDICIAL INSTITUTIONS AND HISTORY OF THEIR FORMATION. *Абай атындағы ҚазҰПУ-нің ХАБАРИШЫСЫ, «Юриспруденция» сериясы.*
7. Karimov, K. (2021). Qozilik mahkamalari hujjatlariga oid ayrim mulohazalar. *Sohibqiron yulduzlari.*